

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

2024-yil 1-fevral, payshanba,
13 (23.890)-son

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_u... ...r.com/zarnews_uz

**KUN HIKMATI**

Ulug'likning asosiy talabi har narsada me'yorni saqlay bilishda



# VATAN MUSTAQILLIGI, MILLAT TAQDIRI UCHUN KURASH ABADIY KURASHDIR

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: O'zbekistonning har bir farzandi xalqimizning birdamligi, mamlakat yaxlitligi uchun kurashib yashashni o'z hayotining ma'nosi deb bilmog'i kerak! Biz bir bo'lsak - yagona xalqmiz, birlashsak - Vatanmiz!**

Dunyoda imperiyaparastlik va shovinizm bosh ko'tarayotgan, tajovuz va tahdidlar tobora ortayotgan, tarixni buzib talqin qilish kuchayayotgan, kamsitishlar, bosqinchilik, vayronkorlik, bir-biriga qarama-qarshi qo'yishlar, adovat qo'zg'ash, urushlarni moliyalashtirish, ichki ishlarga aralashish ochiq-oydinlik kasb etayotgan ziddiyatli, murakkab bir davrda yashayapmiz.

Mustaqil mamlakatlarga tahdidlar turli ko'rinishlarda bo'lyapti. Ba'zan unga beparvo qaraymiz, ba'zida kampaniyavozlik qilib, kim o'zarga javob qaytaramiz.

Lekin biz millat sifatida anglab yetishimiz zarur bo'lgan bir haqiqat bor. Mustaqillik uchun kurash qachonki, unga nisbatan tahdidlar yuz bergandagina ko'zga tashlanmasligi kerak. Bu ojiz qarash bilan mutlaqo murosa qilib bo'lmaydi.

Mustaqillik uchun jang mamlakat va millat bor ekan, hech qachon to'xtamaydi.

Unutmasligimiz kerakki, bu jang to'xtagan kuni dushmanlar bosh ko'taradi. Ular hali hamon mustamlakachilik, hukmronlik da'vosidan voz kechgani yo'q, payt poylab turishibdi.

Qachonki, biz ahillikni, birlikni, hamjihatlikni yo'qotsak, ichimizdan xoinlar chiqsa, Vatan ozodligini ko'z qorachig'imizdek asramasak, bunday vaziyat dushmanlarimizga qo'l keladi.

Ba'zan qaysidir kovaklardan, o'zimizni ichimizdan chiqqan sotqinlarni jirkanch ovozi chiqib qoladi. Ular tutqunlik, qullik davrlarini zo'r berib qumsaydilar. Ularning safsatalari "gugurt bir tiyin edi"dan boshlanadi. Ularning bu chirkin qarashlariga chidab turish og'ir. O'sha zamonlarda "Qadring qancha edi?" degim keladi.

Turmush qiyinligidan, nochorligidan ayollar o'ziga o't qo'ygan, "paxta ishi", "o'zbeklar ishi" girdobida otalar qamalgan, go'daklar o'limi ortgan, bemaqsad urush tufayli yigitlar jasadi temir tobutlarda qaytgan, bolalar paxta quliga aylantirilgan davrlarni nahotki, unutgan bo'lsak? Nahotki, shunday mash'um kunlarni qumsayotganlar oramizda bo'lsa. Bu dahshatku...

Mustabid tuzumni qumsaydigan kimsalarni buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov ta'biri bilan aytganda manqurt degim keladi. Nahotki, qandaydir moddiy narsalarga Vatan mustaqilligini qiyoslash mumkin bo'lsa? Nahotki, uning qalbida milliy g'urur bo'lmasa? Or bo'lmasa? Nomus bo'lmasa? O'sha kimlardir qumsayotgan mustabid tuzum bizni millat sifatida ojiz qilib qo'ymadimi? Bizning tafakkurimizni o'ldirmadimi? Osmadimi? Otmadimi? Surgun qilmadimi? Agar mustaqillik bo'lmaganida edi, biz allaqachon o'zligimizni yo'qotgan, qadriyatlarimizdan ayrilgan, tilsiz, erksiz, bir nochor xalqqa aylanar edik.

Bugun mamalakat mustaqilligi haqida gapirayotganlar uni oddiy hodisaday ta'riflaydilar. Yo'q unday emas. Mustaqillik mamlakat va millatning qaddini tikladi. Mustaqillik millatning ongidan qullikka ko'nish sindromini olib tashladi.

Mustaqillikning bebaho imkoniyatlarini, buyuk evrilishlarini, ulug' istiqbollarini anglash uchun mustabid tuzumning kirdikorlaridan xabardor bo'lish kerak. O'sha ayanchli tarixni chuqur o'rganish kerak. Bobolarimiz qanchalik xo'rlanganini, toptalganini, qatag'on qilinganini, millatning aqli, bilimi, o'tmishi ayovsiz yo'q qilinganligini taftish qiladigan payt allaqachonlar kelgan.

Hech qachon mustabidlik qaytib kelmasin. Xalqimiz ozod yashasin.

Ozodlik uchun kurashga jonini tikadigan avlodlar paydo bo'lsin.

Vatanparvar, millatparvar yoshlar maydonga chiqsin.

*Yaxshi bilingki, Vatan uchun, mustaqillik uchun kurash bu abadiy kurashdir. Bu kurashdan, hech kim o'zini chetga olishga haqqi yo'q. Bu kurash umummillat kurashidir. Bu kurashda chekinib bo'lmaydi. Ortimizda Vatan va millat turibdi.*

Bugun O'zbekistonning taraqqiy etayotganligi ba'zilarga yoqmasligi aniq. O'zbekistonning Markaziy Osiyo birligi uchun ulkan ishlarning qilayotganligi kimlarningdir tinchini o'g'irlaydi. Bugun O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi o'rni tobora yuksalayotganligi dushmanlarimizni bezovta qiladi.

Chunki ular bir paytlar mustaqillikning dastlabki yillarida "bizsiz yasholmaydi", "o'zlari yalinib keladi", "chegarasini himoya qilolmaydi", "ertaga falon davlat ularni bosib oladi", deya fol ochishgan edi. Lekin ularning foli to'g'ri chiqmadi. Biz mustaqillikni boshimiz uzra baland ko'tarib, mashaqqatli yo'llarni mardonavor bosib o'tdik.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev haqli ravishda qayd etganidek: Bugun oldimizda turgan vazifalar qanchalik ulkan va murakkab bo'lmasin, ularni birgalikda hal etishga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi. Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Bugun O'zbekiston dunyoning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarining to'laqonli a'zosi. Dunyo tinchligida muhim o'rin tutadigan mamlakat. O'z so'ziga, o'z qarashlariga ega bo'lgan qudratli davlat. O'zbekiston uchun qaramlik allaqachon tarixga aylangan.

Xomta'ma bo'lmang, millatimizni kamsitishingizga indamay qarab turmaymiz. Bugun bunday kimsalarga javob berishga, kimligimizni ko'rsatib qo'yishga kuchimiz ham, bilimimiz ham yetadi.

Aynigan kallangizdan chirigan xayollarni quving. O'zbekistondan, o'zbek xalqidan balki, nimalarnidir olishingiz mumkin. Lekin mustaqillikni emas. Bu so'zlarni qulog'ingizga qo'rg'oshinday quyib oling.

**Rustam XOLMURODOV,**
**Samarqand davlat universiteti rektori,**
**O'zbekiston Respublikasi fan arbobi,**
**Oliy Majlis Senati a'zosi.**

# Samarqandning asl farzandi




**Viloyatimizda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti tavallud kuniga bag'ishlangan tadbirlar Samarqand shahridagi Hazrati Xizr majmuasida Islom Karimov maqbarasi ziyorati bilan boshlandi.**

Viloyat va shahar hokimliklari rahbarlari, faollar va jamoatchilik vakillari ishtirokida Qur'on oyatlari tilovat qilindi.

Islom Karimovning mustaqil O'zbekiston davlatini barpo etish va xalqaro maydondagi obro'sini oshirish, xalqimiz farovonligi yo'lida amalga oshirgan ishlari yodga olindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Birinchi Prezidentimiz maqbara-majmuasining bunyod etilishi, Toshkent, Samarqand va Qarshi shaharlarida Islom Karimov haykallari o'rnatilishi, har yili tug'ilgan kuni keng miqiyosda nishonlanishi xalqimizning ardoqli farzandi xotirasiga yuksak hurmat va ehtiromi ramzi ekanligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng Registon maydoni yaqinida o'rnatilgan Islom Karimov haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

**"O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni hamda davlat dasturi loyihalari keng jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilindi.**

# DAVLAT DASTURIGA TAKLIFINGIZ BORMI? MARHAMAT!

Davlat dasturi loyihasida:
- har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish (44-maqsad);
- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash (17-maqsad);
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish (12-maqsad);
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish (16-maqsad);
- "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish (11-maqsad) ustuvor yo'nalishlari bo'yicha quyidagilar belgilanmoqda:
  - amaliy chora-tadbirlar rejalari;
  - normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxatlari.

**Muhokamalar 2024-yilning 31-yanvaridan 9-fevraligacha davom etadi.**

Loyihalar bo'yicha o'z takliflaringizni "Taraqqiyot strategiyasi" markazining uzbekistan2030.uz onlayn portali orqali bildirishingiz mumkin.

# INDALLOSINI AYTGANDA...

**Zulfiqor MUSOQOV, kinorejissyor, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi:**



– Laganbardor, poraxo'rlardan jirkangan insonlarda milliy g'urur shakllangan bo'ladi.

# Mingga yaqin murojaat joyida hal etildi

**Gazetamizning oldingi sonlarida viloyatimizda mahallalarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni yaxshilash, "mahalla yettiligi" ishi samaradorligini oshirish bo'yicha respublika ishchi guruhi faoliyat boshlagani haqida xabar bergan edik. O'tgan vaqtda ishchi guruh tomonidan viloyatdagi 814 mahalla fuqarolar yig'inida o'rganish ishlari olib borildi.**



Jarayonda asosiy e'tibor aholi muammolarini aniqlash, joyida ijobiy hal etish hamda "Og'ir mahalla" tasnifiga kiruvchi 217 ta o'zini o'zi boshqarish organi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratildi. Ayni maqsadda "mahalla yettiligi"ning hamkorligi bo'yicha yangicha tizim ishlab chiqilib, Toyloq tumanidagi Tepaqishloq mahallasi misolida "Toyloq tajribasi" yaratildi.

O'rganish davomida aholidan 1429 ta murojaat kelib tushgan, 467 ta muammoli masala aniqlangan. Ularning 963 tasi joyida ijobiy hal etilgan bo'lsa, 419 tasi bo'yicha ish davom etmoqda. Shuningdek, 514 ta murojaat viloyat, tuman, shahar va mahalla kesimidagi "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev rahbarlik qilgan o'rganish tadbirlari doirasida uyushmaning hududiy bo'limlari faoliyatini tashkil etishda amaliy hamda uslubiy ko'mak ham berildi. O'zbekiston mahallalari uyushmasining viloyatimizdagi tuman va shahar bo'limlariga quyidagilar rahbar etib tayinlandi:

Samarqand shahriga **Jamshed QODIROV**;
Kattaqo'rg'on shahriga **Abdulla RAHMONOV**;
Nurobod tumaniga **Latif HAMRAYEV**;
Payariq tumaniga **Zoyir TURDIYEV**;
Paxtachi tumaniga **Shuxrat MUSIRMANOV**;
Oqdaryo tumaniga **Rustam HUSANOV**;
Bulung'ur tumaniga **Hasan EGAMBERDIYEV**;
Toyloq tumaniga **Akmal MIRZOYEV**;
Narpay tumaniga **Beknazar ERNAZAROV**;
Kattaqo'rg'on tumaniga **Ilhom NURMURODOV**;
Samarqand tumaniga **Shavkat HASANOV**;
Past Darg'om tumaniga **Bahtiyor QULMAMATOV**;
Jomboy tumaniga **Umidjon MAMATOV**;
Urgut tumaniga **Asliddin BOBOYEV**;
Ishtixon tumaniga **Komil YAVKOCHDIYEV**;
Qo'shrabot tumaniga **Abdunabi XOLBEKOV**.






# SamISI ISPANIYANING HUYELVA UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK QILADI

**Bugungi kunda har bir davlatning rivojlanish darajasi nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan belgilanadi, balki ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalarida shakllanadigan intellektual salohiyat bilan tavsiflanadi. Zero, aynan ta'lim tizimida yaratilgan ilmiy-texnika taraqqiyotining asoslari mamlakatning barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha mamlakatlarda ta'limni rivojlantirish, aholining intellektual salohiyatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ham aholining kasbiy, intellektual va ma'naviy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.**

Jumladan, mamlakatimizni rivojlantirishning "O'zbekistan - 2030" strategiyasida har bir oliy ta'lim muassasasi xorijiy yetakchi universitet va markazlar bilan yaqin hamkorlikni o'rnatishi, TOP – 500 talikka kiruvchi universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish orqali ikki tomonlama diplom tizimini joriy qilish, O'zbekistonning 10 ta oliy o'quv yurtini dunyodagi TOP - 1000 reytingiga kiritishga erishish, 30 ta OTMni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida 2023-yilning 23-24-noyabr kunlari O'zbekiston va Ispaniya oliy ta'lim muassasalari rektorlari konferensiyasi o'tkazildi.

Konferensiya Ispaniyaning Kadis universiteti bazasida tashkil etilib, unda ta'lim hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, davra suhbati hamda o'zbek – ispan markazining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ispaniya Qirolligi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligini 2012-2013-yillardan boshlagan. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida turli loyihalarda Ispaniyaning bir qator oliygohlari bilan birgalikda faoliyat olib borilgan. Jumladan, CANEM I, CANEM II, KA 107 loyihalarida hamkorlikda ishlaganmiz. Keyinchalik Ispaniyaning Granada va Las Palmas De Gran Kanariya universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan va talabalar-xodimlar akademik mobilligi yo'lga qo'yilgan, qisqa va uzoq muddatli stajirovkalar amalga oshirilgan. Erasmus+ dasturi doirasida 2017-yilda Granada universiteti (UGR) bilan anglashuv memorandumi imzolangan.

Ispaniya Yevropaning yetakchi ta'lim markazlaridan biri bo'lib, keng doiradagi, yuqori darajadagi oliy ta'lim dasturlarini taklif etadi. Ispaniya universitetlari yuqori xalqaro e'tirofga ega va dunyodagi eng yaxshilar qatoriga kiradi. 2023 QS World University Rankings reytingida dunyodagi eng yaxshi 1000 ta universitetning 24 tasi Ispaniyada joylashgan. 2023 Times Higher Education World University Rankings reytingida esa eng yaxshi 1000 ta universitetdan 27 tasi Ispaniyaga tegishli. Mamlakatning 5 ta eng nufuzli universiteti barqaror ravishda top - 300 oliygohlar qatorida yuradi.

Ispaniyadagi oliy ta'lim umumyevropa va jahon standartlariga, shuningdek, Boloniya jarayoni normalariga muvofiq uch bosqichda olib boriladi:

- Grado – bakalavr darajasi;
- Master – magistr darajasi;
- Doctorado – doktorantura darajasi.

Ispaniya ta'lim tizimi oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun to'lovlarni talab qiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, oliy ta'lim faqat oliy ta'lim muassasalarida olinadi. Davlat universitetlari xususiy universitetlarga qaraganda nufuzli hisoblanadi. Ispaniyadagi barcha universitetlar avtonomdir va talabalar dasturiga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Universitetlarda o'quv yili odatda oktabrdan iyungacha davom etadi. Ko'pgina ispan universitetlari faqatgina ispan tilida ta'lim beradi. Xorijiy abituriyentlarga ispan tilida tayyorlov kurslari taklif etiladi, ular huquq, iqtisodiyot, tibbiyot va boshqa sohalarga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Har yili ispan universitetlarida ingliz tilidagi dasturlar soni ortib bormoqda.

Ispaniyaning Kadis universiteti bazasida o'tkazilgan konferensiya ikki davlat oliy talim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, tajriba almashish, qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, ikki davlatda oliy talim transformatsiyasi kabi mavzularga bag'ishlandi.

Ushbu konferensiya doirasida rektorlar tomonidan O'zbekiston va Ispaniya ta'lim tizimlari to'g'risida taqdimotlar hamda davra suhbatlari o'tkazildi.

SamISI va Ispaniya universitetlari o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida bakalavriatda turizm, magistraturada iqtisodiyot, menejment yo'nalishlarida akademik almashinuvni tashkil etish, turizm va servis yo'nalishi talabalarining amaliyot o'tashini yo'lga qo'yish, magistrant va doktorantlar stajirovkasini tashkil etish, Erasmus+ dasturi doirasidagi tanlovlarda hamkorlikda tayyorlagan loyihalar bilan qatnashish, Ispaniya universitetlari professor-o'qituvchilarini bizning institut tomonidan tashkil etilgan ilmiy konferensiya va seminarlarda qatnashishini ta'minlash hamda qo'shma doktoranturalarni tashkil etish kabi takliflar ilgari surildi.

Konferensiya yakunlari bo'yicha Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Ispaniyaning Huyelva universitetlari o'rtasida Xalqaro hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (SamIES) va Huyelva universiteti (UHU) o'rtasida hamkorlik istiqbollari juda keng. Har ikki oliygoh o'z mamlakatlarida iqtisodiyotning turli sohalariga malakali kadr tayyorlab beruvchi yetakchi oliy ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Hamkorlikning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu talabalar va o'qituvchilar almashinuvidir. Biz bu borada qo'shma almashinuv dasturlarini ishlab chiqishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Huyelva universiteti bilan qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy maqolalar va adabiyotlar nashr etish, shuningdek, konferensiya va seminarlar tashkil etishda hamkorlik qilmoqchimiz.

Mamlakatimiz va Ispaniya oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lishi, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash, turli yo'nalishlarda hamkorlik ko'lamini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

**Muhiddin PO'LATOV,**
**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori.**

# KATTAQO'RG'ONLIKLARNING ICHIMLIK SUVIGA BO'LGAN EHTIYOJI QACHON QONDIRILADI?

**Butun dunyodagi kabi yurtimizda ham aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasi yildan yilga muammoga aylanib borayotganligi sir emas. Yer osti suvlari pastga tushib borayotgani har bir qishloqda sezilmoqda. Ana shunday sharoitda keyingi yillarda aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.**

Jumladan, Kattaqo'rg'on tumanida ham bu boradagi ishlar salmoqli. Aholi xonadonlariga 365 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari tortilgan bo'lib, 275,8 ming nafar aholining 34,5 foizi markazlashgan tizimdan foydalanib kelmoqda. So'nggi yillarda 34,2 milliard so'm mablag' hisobiga 238 kilometr ichimlik suv tarmoqlari tortilib, aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi 36,3 foizdan 48,5 foizga yetdi.



- O'tgan yili Nayman, Boltabek, Navbahor, Qumoq, Mullako'rpa kabi 22 ta mahalla aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi, - deydi "Samarqand suv ta'minoti" MCHJ tuman bo'limi boshlig'i Farhod Pirmatov. – Buning uchun 28 milliard so'm mablag' sarflanib, 23 ta yangi suv quduqlari o'rnatildi va 138 kilometr turli diametrdagi quvurlar tortildi. Mazkur mahallalarda yashovchi 36 ming nafar aholi ilk bora ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, 2,5 ming nafar aholining suv ta'minoti yaxshilandi.

O'tgan yili "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezoni asosida Cho'yanchi mahallasi obodonlashtirilib, ko'rkam manzilga aylandi. Aholining ichimlik suvi, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichki yo'llardan muammolari qolmadi hisob. O'nlab kam ta'minlangan oilalar xonadonlari, maktab, bolalar bog'chasi va boshqa ijtimoiy soha obyektlari ta'mirlandi.

- Mahallamiz ahlining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida katta ishlar amalga oshirildi, - deydi qishloq oqsoqollaridan biri. – 1,6 kilometr suv tarmoqlari tortilib, 1 ta suv qudug'i qazildi. Hozircha 60 ta xonadonda yashovchilar toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Qo'shni Tursunxo'ja qishlog'ida ham qo'shimcha suv qudug'i kovlanmoqda. Besh kilometrdan ziyod tarmoq tortilib, obyekt ishga tushsa, 250 dan ziyod aholi xonadoniga suv boradi. Suv borgan hovlilarga hisoblagich o'rnatish ishlari davom etmoqda.

Tarnov mahallasiga qarashli Jarboshi qishlog'idagi suv qudug'i ishdan chiqqaniga ancha vaqt bo'lgan ekan. Bir-ikki tashabbuskor chiqib, xalqdan pul yig'ib eski quduqni qayta kovlab, suv chiqarishga urinib ko'rishgan. Biroq ularning barcha harakatlari besamar ketgan. O'tgan yili mablag' ajratilib, yangi suv qudug'i qazildi.



- Qo'lbola krandan 30-40 metrdan chiqadigan suv bor, lekin sho'r, ichib bo'lmaydi, - deydi Gulhayo Saidova. - Tomorqa va mol-holni sug'orishga ishlatsa bo'ladi. Endi ichish uchun qo'shni qishloqdan suv tashib kelishdan qutuldik.

Tuman aholisining bor-yo'g'i 0,30 foizigina oqova xizmati bilan ta'minlangan. Yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarda joylashgan xonadonlardagi aholigina bu xizmatdan foydalanmoqda.

- To'g'ri, shu paytgacha tumanda suvoqova tizimi deyarli ishlamasdi, - deydi korxonaning mijozlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Feruzjon Ergashev. – Joriy yildan Mirzo Ulug'bek, Mundiyon, Bog'ot, Kadan mahallalarida qurilayotgan ko'p qavatli uylarning oqovasi uchun 17 kilometr tarmoq qurish ishlari boshlanadi. Boynazar qishlog'ida joylashgan oqova inshooti modernizatsiya qilinib, zamonaviy tozalash inshootiga aylantiriladi. Buning uchun 10 milliard so'm mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

2024-yil dasturiga tushgan Melixo'ja mahallasidagi 4 ta qishloqning ichimlik suv muammosi hal bo'ladi. Tong qo'rg'onida 5 kilometr tarmoq va 2 ta hovuz rekonstruksiya qilinsa, Melixo'ja qishlog'ida 15 kilometr, Enamyaxshi qishlog'ida 18 kilometr masofaga yangi tarmoq tortiladi va 3 ta suv qudug'i kovlanadi.

To'g'ri, tumanda mazkur sohada ko'p ishlar qilinmoqda. Biroq, hali yana 190 mingga yaqin kattaqo'rg'onliklarning ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoji qondirilmagan. O'nlab mahalla va qishloqlar aholisi markazlashgan suv tarmoqlariga ulanmagan. Damxo'ja magistral suv tarmog'iga yaqin bo'lgan Moybuloq, Andoq, Sho'r kabi mahalla va qishloqlar aholisiga suv chiqarib berish nahotki shu darajada murakkab bo'lsa?

**Dilmurod TO'XTAYEV.**
**Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

# MAHALLAga 4,5 MILLIARD SO'M AJRATILGAN

## *BU MABLAG' NIMALARGA SARFLANYAPTI?*

**Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondining 2023-yilda davlat organlarining ijtimoiy buyurtmalari asosida muhim ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish tanlovida Narpay tumani Muqimiy mahallasi aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihasi g'olib bo'lib, uni amalga oshirish uchun 4,5 milliard so'm mablag' ajratilgan. Xo'sh, ushbu mablag' hisobidan mahallada qanday ishlar amalga oshiriladi?**

- Mahallamizda 3500 nafardan ziyod aholi yashaydi, - deydi Muqimiy mahallasi raisi Alijon Eshonqulov. – Hududdan chiqayotgan suv sho'rligi uchun aholi ko'p yillardan buyon ichimlik suvini sotib olardi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida o'tgan yili davlat granti loyihasida qatnashib, g'olib bo'ldik. Loyiha bo'yicha mahalladagi 60-umumta'lim maktabi va 9-maktabgacha ta'lim tashkilotini ichimlik suvi bilan ta'minlash, 19 kilometrga ichimlik suv tarmog'i tortish, 1 dona rezervuar (hovuz), 1 dona transfortmator va 1 dona xlorlash uskunasi qurish rejalashtirilgan va ayni paytda tarmoq tortish ishlari boshlangan.

Muqimiy mahallasi uchun ajratilgan davlat buyurtmasi loyihasi amalga oshirilishi bo'yicha olib borilayotgan ishlarini viloyatda tegishli tashkilot va boshqarma mas'ullaridan iborat ishchi guruh monitoring qildi.

- O'tgan yilning sentabr oyida "Eng yaxshi taklif" bo'yicha elektron tenderda g'olib bo'lib, Muqimiy mahallasida ichimlik suv tarmog'i tortish ishlarini boshlaganmiz, - deydi mahallada ichimlik suv tarmoqlarini tortish ishlarini bajarayotgan "Narpay agro trade" MCHJ rahbari Islom Ismatov. – Loyiha qiymati 4 milliard 200 million so'mga baholangan bo'lib, bajarish muddati 295 kunni tashkil etadi. Ikki oydan buyon ishlar davom etmoqda va hozirgacha 2 milliard 795 million so'mlik ish bajarildi, obyekt belgilangan muddatdan oldin foydalanishga topshiriladi.

Ishchi guruh o'rganishlarida qurilish korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilish bo'yicha qurilish inspeksiyasiga biriktirilmagani va natijada ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilgani aniqlandi.

- Mahallada suv tarmog'i obyektini tortish ishlari boshlanganiga ikki oy bo'lgan, biroq qurilish sifatini nazorat qilish uchun obyekt buyurtmachisi tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan, - deydi viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasi inspektori Ulug'bek Shodmonov. – Shu bois obyektning ayrim joylaridagi ishlar belgilangan me'yorlarga javob bermaydi. Xususan, transheyalar ensiz qazilgan va ichkarisida ishlab bo'lmaydi, aksariyat ko'chalarda esa transheyalar qazilganicha turibdi va tarmoq tortilmagan. Shuningdek, quvurlar ostidagi tuproqning zichlanishi ham talabga mos emas.

O'rganish yakunida buyurtmachi - Muqimiy mahallasi faollariga obyekt qurulishini doimiy nazorat qilish va kamchiliklarni vaqtida bartaraf qilish uchun inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazish va jamoatchilik nazoratini tashkil qilish kerakligi tushuntirildi.

**Fazliddin RO'ZIBOYEV.**

**O‘tgan yil viloyatdagi 68 ta maktabda yangi baholash tizimi joriy etildi. Endilikda 5 ballik tizim o‘rniga 100 ballik baholash tizimi tajribadan o‘tyapti. O‘qituvchi yangi baholash tizimida o‘quvchining darsga qatnashishi, faolligi, uyga vazifani bajarishiga qarab unga ball berib boradi.**



# Prezident ta’lim muassasalari baholash tizimi
## maktablarda joriy etilyapti

Viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi o‘tkazgan matbuot anjumanida bu haqda ma’lum qilindi.

- 2024-yilda viloyat bo‘yicha qo‘shimcha 100 ta maktabda yangi baholash tizimi joriy etiladi, - dedi boshqarma boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Farrux Boltayev. – Shu paytgacha bunday baholash tizimi Prezident ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan edi. Yangi tartibga ko‘ra, xorij tajribalari asosida ishlab chiqilgan yangi baholash tizimi maktablarda ham joriy etiladi.

Shuningdek, anjumanda o‘tgan yilda maktabgacha va maktab ta’limida erishilgan yutuqlar tilga olindi. Xususan, maktablarning 416 ta kompyuter sinfiga 6656 dona kompyuter olib berilgan bo‘lsa, 129 ta maktab 135 dona elektron doska bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, 16 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ikkinchi xorijiy tilni o‘qitish hamda bitta kasbga o‘rgatish joriy etilgan. 56619 nafar o‘qituvchining uzluksiz kasbiy malaka oshirish platformasi orqali malakasi oshirilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotining 1080 nafar rahbar va xodimlari malaka oshirish institutida o‘qitilgan. “Samarqand tajribasi” sifatida mobil metodik guruh tashkil qilinib, 2766 nafar o‘qituvchining bilim darajasi oshirilgan.

Tadbirda o‘qituvchilar attestatsiyasi, ma’naviy va ma’rifiy ishlar, rejalar haqida ham gapirildi. Soha mutasaddilari jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga javob berdi.

**Xurshida ERNAZAROVA.**

# 2024–yilda viloyat daromadlari qanday sarflanadi?

**2023-yilda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 74,1 trillion so‘mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 5,6 foiz o‘sishga erishildi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi aholi jon boshiga 17 million so‘mdan oshdi.**

Bu raqamlar viloyat matbuot uyida iqtisodiyot va moliya boshqarmasining 2023-yilda sohada amalga oshirilgan ishlar va joriy yilgi rejalarga bag‘ishlangan matbuot anjumanida bildirildi.

Viloyat budjetida 2023-yilda daromadlar rejasi 106 foizga bajarildi, budjetga 289,3 milliard so‘mlik qo‘shimcha daromad tushdi, - deydi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Azamat Turonov. - Xarajatlar rejasi 102 foizga ijro etildi va budjetdan 8 trillion 830,8 milliard so‘mlik xarajatlar amalga oshirildi. Jumladan, ta’limga 1 trillion 342,1 milliard so‘m, sog‘liqni saqlashga 2 trillion 551,6 milliard so‘m, iqtisodiy xarajatlarga 724,2 milliard so‘m, markazlashgan investitsiya xarajatlariga 408 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga jami 391,9 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, ikki mavsum doirasida g‘olib bo‘lgan 403 ta loyiha moliyalashtirildi.

2024-yilda viloyat yalpi hududiy mahsulot hajmi 5,7 foizga o‘sishi kutilmoqda va budjet tushumining 80 foizdan ortig‘i ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga sarflanadi.

Budjet daromadlari rejasi 5 trillion 191 milliard so‘mga belgilangan bo‘lib (o‘tgan yilga nisbatan 117 foiz), xarajatlar qismi 6 trillion 750 million so‘mga rejalashtirilgan.

Jumladan, ijtimoiy sohaga 4,3 trillion so‘m markazlashgan investitsiyalarga 701,7 milliard so‘m (jami xarajatlarning 10 foizi), tashabbusli budjetga 458,3 milliard so‘m, iqtisodiyot xarajatlariga 610,9 milliard so‘m, ichki yo‘llarni ta’mirlash uchun 64 milliard so‘m, veterinariya sohasi tashkilotlarini saqlash uchun 50,1 milliard so‘m mablag‘ ajratiladi.

**O‘ktam XUDOYBERDIYEV.**

*Yonimizdagi odamlar*

# Xalq xizmatidan charchamaydi

**Hayotda imonli, diyonatli, saxovatli insonlar borki, ularni iliq so‘zlar bilan siylaymiz. Ulardan o‘rnak olishga, maslahatlariga quloq tutishga intilamiz. Shunday insonlardan biri shifokor Obloqul Husanovdir.**

O.Husanov 1964-yil Kattaqo‘rg‘on tumanining Jizmonsoy qishlog‘ida tug‘ildi. Otasi Xoliqul Husanov va onasi Po‘latoy ayaning duosini olgan farzandning kelajagi savobli va xayrli ishlarga boy bo‘ldi. U mendan ikki sinf oldin o‘qisa-da, birga o‘ynab o‘sdik. Har safar ertalab maktabga otlanarkanmiz, yo‘l-yo‘lakay nimadir sho‘xlik qilib qo‘yardik. Ustozlardan ancha-muncha tanbeh eshitardik, ammo sho‘x bo‘lsak-da, maktabda a’lo baholarga o‘qirdik.



Do‘stim tumandagi 26-o‘rta maktabda ustozlari Murtazo Rabbimov va Ermamat Muhammadiyevlardan ta’lim oldi. 1981-yil maktabni oltin medal bilan tamomladi. 1982-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga o‘qishga kirdi. 1988-yil institutni tamomlab, viloyat shifoxonasining jarrohlik bo‘limida internatura kursini o‘tadi. Keyin shu yerda viloyatlararo tomirlar jarrohligi markazida shifokor bo‘lib ishga qoldi. O‘sha paytdagi markaz rahbari Zafar Hamroqulovdan soha sirlarini o‘rgandi. O.Husanov bugungi kungacha shu maskanda tomir jarrohi bo‘lib ishlab kelmoqda.

U jamoada hurmat va e’tiborga sazovor. O‘z kasbini mas’uliyat bilan bajaradi, bemorlarga sidqidildan yordam beradi. O‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Bugungacha minglab mijozlarga xizmat ko‘rsatib, el-yurt olqishiga musharraf bo‘lib kelmoqda.

Shifokorlik kasbida halol mehnat qilib kelayotgan do‘stim Obloqul Husanov bugun 60 yoshni qarshilayapti. Uni qutlug‘ yoshi bilan tabriklayman. Doim sog‘-omonlikda farzandlar rohatini ko‘rib, xalqimizga xizmat qilishdan charchamasin.

**Zayniddin NORMAN,**
**O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi, tibbiyot fanlari nomzodi.**

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

# O‘QISHGA MARHAMAT!

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni nazarda tutgan ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlari talablariga muvofiq o‘quvchlarini chuqurlashtirilgan va kasbga yo‘naltirilgan holda o‘qitish, intellektual rivojlanishni ta’minlash hamda yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Samarqand akademik litseyi 2024-2025-o‘quv yili uchun o‘quvchlarni o‘qishga taklif etadi.**

Ichki ishlar vazirligining Samarqand akademik litseyiga o‘qishga kirish istagini bildirgan Samarqand viloyati hududida yashovchi umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari uchun **arizalar 2024-yil 1-fevraldan 15-aprelga qadar qabul qilinadi.**

**Akademik litseyga qabul bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:**

*1. Dastlabki tanlov (yakka tartibdagi dastlabki suhbat, individual psixologik xususiyatlarni o‘rganish, harbiy tibbiy komissiya ko‘rigidan o‘tish);*

*2. Maxsus-professional tanlov (yozma ish (diktant), jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo’yicha sinov, yakka tartibdagi yakuniy suhbat);*

*3. Test sinovi.*

**Akademik litseyda o‘qish muddati 2 yil.**

**Ta’lim yo’nalishi: Ijtimoiy-gumanitar fanlar.**

**O‘qishga kirish istagini bildirgan o‘quvchlar (nomzodlar) qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

*1. Ariza (Belgilangan shakldagi);*

*2. Tug‘ilganlik haqida guvohnoma (asli va nusxasi, dalolatnoma yozuviga o‘zgartirish, tuzatish va qo‘shimchalar kiritilgan yoki tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma almashtirilgan yohud familiyasi, ismi, otasining ismi va boshqa ma‘lumotlar o‘zgartirilgan bo‘lsa bu haqida FHDY organlarining ma’lumotnomasi);*

*3. Yaqin qarindoshlarining pasporti, tug’ilganlik haqida guvohnomasi, nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnomasi, nikohdan ajralganlar bo‘lsa, nikohdan ajralganligi haqidagi guvohnomasi, vafot etganlar bo‘lsa, ularning o’lim haqidagi guvohnomasi (asli*




*va nusxalari);*

*4. 3x4 sm. o‘lchamdagi 6 dona fotosurat (bosh kiyimsiz) hamda 9x12 sm. o‘lchamdagi 2 dona fotosurat (bosh kiyimsiz)*

*5. Tarjimai hol;*

*6. So‘rovnoma (belgilangan shakldagi);*

*7. O‘qish joyi va mahalla fuqorolar yig’inidan tavsifnoma;*

*8. Mudofaa ishlari bo‘limlaridan ro‘yxatda turushi to‘g‘risidagi ma’lumotnomaning asli va nusxasi;*

*9. Fanlarni o’zlashtirishi to’g’risida o’qish joyidan maktab direktori tomonidan tasdiqlangan ma’lumotnoma;*

*10. Ota-onasining Ichki ishlar vazirligining akademik litseyga o‘qishga kirishiga rozilik xati (belgilangan shaklda).*

**Manzilimiz: Samarqand shahri Maroqand ko’chasi, 46-uy. Mo‘ljal: “Karasinka” do‘koni.**
**Ichki ishlar vazirligi Samarqand akademik litseyi qabul komissiyasi.**

## AUDITORLIK TASHKILOTLARI DIQQATIGA!

**“JOMBOY KO‘CHATCHILIK TOMORQA XIZMATI” MCHJ 2023-yil yakuni bo‘yicha milliy buxgalteriya hisobi standartlari (MBHS) asosida tashqi auditorlik tekshiruvi o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotlari o‘rtasida tanlov e’lon qiladi.**

**Tanlovda ishtirok etadigan auditorlik tashkilotlari:**

*- milliy sertifikatlash tizimiga muvofiq yuqori reyting ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi;*

*- xalqaro moliyaviy hisobdorlik standartlari (audit, hisobotlar XMHSga muvofiqligi) bo‘yicha yirik O‘zbekiston va xalqaro kompaniyalarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq amaliy tajribaga ega bo‘lishi;*

*- tarkibida XMHS va XAS sohasida zaruriy buxgalterlik (auditorlik) malakaga ega bo‘lgan hamda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan sertifikatlarga (ASSA, DipIFR, SRA, CIPA) va kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lgan mutaxassislar faoliyat yuritadigan bo‘lishi shart.*

**Taqdim etilishi lozim bo‘lgan hujjatlar:**

*- ishtirokchining tanlovda qatnashishi bo‘yicha taklifi va auditorlik tekshiruv o‘tkazishning dastlabki qiymati;*

*- auditorlik tashkiloti to‘g‘risidagi ma’lumot va litsenziya nusxasi;*

*- auditorlik tashkilotining eng yirik mijozlari ro‘yxati va sohada tegishli ish tajribasi;*

*- auditorning malaka sertifikatlari va boshqa xalqaro sertifikatlari nusxalari;*

*- sug‘urta polisining nusxasi.*

Tanlovda qatnashish uchun tijorat takliflari ushbu e’lon chop etilgandan so‘ng 30 kun davomida quyidagi manzilda qabul qilinadi:

**O‘zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati, Jomboy tumani, Nazar mahallasi.**

**DA’VOLAR BO‘LSA…**

Samarqand viloyati soliq boshqarmasida soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatda turgan MCHJ shaklidagi “SAMARQAND GOLDEN APPLE GROUP” qo‘shma korxonasi (STIR: 304433945) o‘zining moliyaviy xo‘jalik faoliyatida shakllangan, qoplanmagan zarar summasini haqiqatda shakllantirgan ustav fondi hisobidan kamaytirmoqda. Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e’tirozlar ushbu e’lon gazetada chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinishini ma’lum qiladi.

**Manzil: Samarqand shahri Bikovskiy ko‘chasi, 5/6-uy.**

**Murojaat uchun telefon: +99891-550-66-00.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Sattarov Salimga (2014-yil 6-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Djalilov Majidga (2011-yil 3-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O‘rtashiq mahallasi.**

* * *

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Nosirova Musallamga (2017-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand tumani O‘rtashiq mahallasi.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Nabiyev Mirzaga (2006-yil 16-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mahmudova Munira Kurbanovnaga (2021-yil 26-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Avazov Samarga (2020-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Tursunov Shavkat Zubaydullayevichga (2019-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.**

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Samatov Rustam Sanatullayevichga (2019-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasida marhum Baymuradov Bekmurad Dusmuradovichga (2023-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Toshtemirov Alisher Po‘latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Obod ko‘chasi, 35-uy, 3-xona.**

* * *

Toyloq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hasanov Aloviddin G‘iyosiddin o‘g‘li notarial idorasida marhum Salohiddinov Nematillo Narzilloyevichga (2018-yil 13-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hasanov Aloviddin G‘iyosiddin o‘g‘li notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Toyloq shaharchasi.**

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Mardiyev Luxman Pardayevichga (2021-yil 16-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ashurova Dilafruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 110-uy.**

* * *

Samarqand tumanidagi “SHUXRATJON SHODIKULOVICH EKINLARI” oilaviy korxonasining (STIR: 306295024) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

*Mulohaza uchun mavzu*

# Ilmga ishtiyoq oiladan boshlanadi

**Oila - hayot davomiyligining asosi, jamiyatning muhim birlamchi halqasi. Turmush tashvishlariyu quvonchlarining katta qismi shu qo'rg'on ichida kechadi. Nozik his-hayajonlar, qadr, mehr-oqibat, ezgulik, olijanoblik singari insoniy xislatlar sarchashmasi ham shu maskan qa'rida. "Oilaning yuzaga kelishi Allohning izni bilan", degan hikmat bejiz aytilmaydi.**

Bolaning murg'ak qalbidagi ilk kurtak ona bag'rida, oila davrasida nish uradi. Hayotni ilg'ash, tasavvur va xarakter shu qutlug' va muqaddas dargohda ko'z ochadi. Yaxshi va yomonni, egri va to'g'rini, issiq va sovuqni go'dak birinchi bor qayerda his qiladi? Albatta, oilada. Kattaga hurmat, kichikka izzat, uyat, andisha, tamiz, mehnatga munosabat, Vatanga muhabbat, insonparvarlik, shu jumladan, ilmga ishtiyoq oila dorilfununining asosiy tamoyillari, desak xato bo'lmaydi. Ota-ona esa shu dorilfununning haqiqiy muallimlaridir. Oiladagi ma'naviy muhit ko'p jihatdan ularning ikkalasiga bog'liq. Ota-ona munosabatlari oilaning asosiy qalqoni, mustahkamligining asosi bo'libgina qolmay, jamiyatning birlamchi bo'lagidagi hayotning mayog'i, beqiyos tayanchi.

Shu o'rinda oilaning muqaddasligi mamlakatimizda qonun bilan muhofaza qilib qo'yilganini ta'kidlamoq joiz. Konstitutsiyamizning XIV bob, 76-moddasida shunday deyiladi: "Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi". Bundan ko'rinadiki, oilaning jamiyat hayotidagi mavqeyini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Darvoqe, oila shunday muqaddas maskanki, uning inson hayotidagi muhim jihatlarini sanab, sanog'iga yetolmaysiz. Jumladan, xalqimiz "Ilmga ishtiyoq oiladan boshlanadi", deganida haqiqat bor. Bu haqda ko'plab qo'llanmalar, risolalar yaratilgan. Biroq oila haqida mulohazalar, bahslar davomiyligi hech vaqt to'xtamagan.

Bola taqlidchi bo'ladi. Ular birinchi navbatda, ota-onasidan andaza oladi. Ularning muomalasi go'zal bo'lsa, bolalar ham shunday muloqot qilishga intiladi. Bu qoida tariqasida boshqa holatlarda ham amal qiladi. Oila boshlig'i va uy bekasi kitob o'qiganini ko'rgan farzand kitobga talpinadi. Kitobga, mutolaaga, dars tayyorlashga oshiqqan bola kelajakda ilmli, barkamol bo'lib shakllanadi. Shuningdek, aka yoki opaning ukada, singilda ilmga havas uyg'otishda muhim ta'siri borligini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu ham oila atalmish mo'tabar sajdagohning muhim qirralaridan biri.

O'tgan yil akademik litseyni bitirgan Adhamjon ismli o'quvchimiz haqida ijtimoiy tarmoqlarda, televideniye, radio va gazetalarda ancha-muncha yozildi. Gap shundaki, Adhamjon Janobiddinov umumiy summasi 25 million dollar grant yutib, muddatidan ilgari dunyoning 20 dan ziyod oliy o'quv yurtlari talabasi bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayni paytda u Amerikaning Vuster shahridagi oliygohning ikkinchi bosqichida ta'lim olyapti.

Yangi yil arafasida u bilan uchrashib qoldim. Ta'tilga kelgan ekan. AQSHdagi o'qishi, shart-sharoitlar, dunyoning turli burchaklaridan kelgan do'stlari haqida gapirib berdi. Ingliz tilini puxta o'rganish bilan birgalikda xitoy tilini ham o'zlashtiribdi va beshta tilda bemalol so'zlashadigan bo'libdi.

Urgut tumanining Qayroqli mahallasida tug'ilib o'sgan oddiy qishloq bolasining muvaffaqiyati omillari bilan qiziqdim. Unda ilmga ishtiyoq, kitobga mehr, tirishqoqlik qayerdan paydo bo'ldi? Balki tug'ma iste'dodi bo'lgandir. Ehtimol, alohida shart-sharoit yaratib berilgandir?



Mulohazaga chorlovchi taxminlar ko'p. Biroq Adhamning bobosi Janobiddin aka Do'stov va otasi Mashrab Do'stov bilan ko'p muloqotlarimdan anglaganim shu bo'ldiki, oilada bolalar tarbiyasi va ta'limi uchun alohida imkoniyatlar qilinmagan, hammasi oddiy. Lekin asosiysi, loqaydlik yo'q, e'tibor, talab va ibrat oilaviy muhitda birlamchi. Bobo ham, ota ham tadbirkor, aniqrog'i, qo'li gul ustalar. Ular vaqti ziq bo'lishiga qaramay, farzand va nabiralar tarbiyasiga fursat topa olgan va bevosita o'zlari shug'ullanib, bolada ilmga, o'qishga havas uyg'otgan. Aqlni charxlovchi, mushohadaga undovchi mashqlar bilan mashg'ul qilishgan. Barcha fanlar qatori ingliz tilini o'rganishiga e'tibor bergan. Bu sa'y-harakatlar zoye ketmagan.

Fanlarni o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishgan, fan olimpiadalarida g'olib chiqqan, "Eng yaxshi kitobxon" tanlovi, "Zakovat" intellektual o'yini g'olibi bilan suhbatlashib bildimki, oila a'zolarining aksariyatida ilmga, kitob o'qishga mehr bor. Bu muhit bolada ilm yo'lidagi ilk tetapoyalarni boshlab bergan.

Turli darajadagi fan olimpiadalari g'olibi, Raqamli texnologiyalar vazirligi stipendiyasi sovrindori Diyora Norbo'tayeva shunday deydi: "Ziyolilar oilasida tug'ilganman. Dadam va ayam shifokor. Kitobga, ilmga havas va qiziqishimga ular sababchi bo'lgan. Uyimizda kitob ko'p. Bo'sh vaqtlarda kitob o'qish oilamizda an'anaga aylangan. Ukam Sarvarbek 7 sinfdaligidayoq Muhammad al-Xorazmiy nomidagi respublika fan olimpiadasida yaxshi natijalarga erishdi. Mening ham muvaffaqiyatlarim oiladan boshlangan".

Matematiklar oilasi, fiziklar, shifokorlar, o'qituvchilar yoki olimlar oilasi singari iboralar quloqqa tez-tez chalinadi. Ba'zida shunday oilalar, sulolalar vakillari bilan uchrashamiz. Darvoqe, bu ham ilmga yoki kasbga ishtiyoqni oshirishga yaqqol misol.

Odatda ezgulik yo'g'rilgan har qanday narsa himoya bilan, e'zoz bilan yanada go'zal.

Oila ham bundan mustasno emas. Shu bois oila pokizalik, ishonchni yoqtiradi. Oila sha'niga gard yuqmasligi kerak. Aks holda, oila talafot ko'radi.

Ahil oilalar ko'p. Biroq hammasi ham namunali emas. Shu o'rinda bolaning tarbiyasi va ta'lim olishiga monelik qilayotgan oddiy bir misolni keltiraman. Akademik litsey o'quvchilaridan biri tez-tez o'qishga kechikib keladigan, gohida sababsiz dars qoldiradigan odat chiqardi. Avval o'zi bilan gaplashib, tartibga chaqirdik. Biroz o'zgarish bo'ldi. Lekin ko'p o'tmay yana shu odatini takrorlay boshladi. Keyin ota-onasini surishtirdik. Ma'lum bo'ldiki, ota-onasi chet davlatga ishlashga ketgan, o'quvchi keksa buvisi qaramog'ida qolgan. Ota-ona xorijda turib, farzandiga har oy pul jo'natib turadi, qimmatbaho qo'l telefoni ham oberishgan. Buning oqibatida bolada erkalik, taltayish, maqtanish kabi salbiy illatlar rivojlana boshlagan. Bu holat bolani o'qishdan chalg'itishi tabiiy edi. Bola dars tayyorlash o'rniga kechasi bilan internetda bo'ladi. Keksa buvining gap-so'zlariga quloq solmaydi. Ota-ona esa kiyim-bosh, yemoq-ichmog'ini ta'minlab, o'g'lim o'qiyapti, degan ishonch bilan xotirjam yuribdi. Farzandidagi salbiy o'zgarishlar bo'yicha otasi bilan telefon orqali gaplashdik. U o'g'lini biroz tartibga chaqirgandek bo'ldi. Lekin bu bilan hammasi iziga tushmadi. Negaki, oilaning asosiy tayanchlari chetda. Farzand ota-ona mehri, ibrati va namunasidan bebahra. Bu degani tarbiya o'z holiga tashlab qo'yilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan gap bejiz aytilmagan. Farzand tarbiyasida, yoshlarda ilmga ishtiyoq uyg'otishda ko'pni ko'rgan bobolar va buvilarning nasihati, mehribon ota-onalarning shaxsiy namunasi, akaning ukaga, opaning singilga, qisqasi, oiladagi ma'naviy muhitning ahamiyati nihoyatda katta.

**Amrillo AHMEDOV,**
**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali akademik litseyi direktori o'rinbosari.**

*Luqma*

# Olisdagi "mehribon"larim

**Meni qishlog'imdagilar pisand qilmasligi mumkindir, lekin Toshkentda obro'yim baland ekan. Qaydan bilding, deysizmi? E-e-e, telefon olganimdan beri kazo-kazolar qo'ng'iroq qilib, hol-ahvolimga qiziqyapti. Muomalasining chiroyliligini aytmaysizmi, rahmatli enam ham menga bunchalik muloyim gapirmagan.**

Aldayotganim yo'q. Mana, yaqinda yana bir juvon telefon qildi. Toshkentdan ekan. Rosa quyuq so'rashdi o'ziyam, yana har ikki gapining birida "vaqtizni olmayapmanmi", deydi qurg'ur. Allambalo tashkilotda ishlarkan, siz bizning aksiyada g'olib bo'ldingiz, desa bo'ladimi. Buni qarang-a, hech narsada ishtirok etmay turib ham g'olib bo'libman. Azbaroyi xursandligimdan ayolning keyingi gaplari qulog'imga kirmadi. Sovg'ani yuboramiz, dedimi yoki o'zim boraman, dedimi, aniq eshitmay qoldim.

Siz bilan hali bog'lanamiz, degani esimda.

Ikki kun qo'ng'irog'ini kutdim. Raqamini tersam, ishlamaydi. Va nihoyat uchinchi kuni qo'ng'iroq bo'ldi. Bu gal erkak kishi ekan. Dab-durustdan mahsulotimizni yuboryapmiz, aniq manzilingizni ayting, deydi. Qanaqa mahsulot? O'zing kimsan? Men bilan gaplashgan chiroyli ovozli ayol qani? Savollarimga javob bergisi kelmadi. Tinmay buyurtmangiz qabul qilib bo'lingan, mahsulot borganda, bir donasi uchun 570 ming so'm to'lasangiz bo'ldi, qolgan ikkitasi tekin, deydi. Menimcha, bu shu xotinning kimidir bo'lsa kerak-da. Munosabatimizni buzish uchun atayin sovg'alarimni o'zimga pullamoqchi. Anoying yo'q. Manzilimni aytmay, telefonni o'chirib qo'ydim. Rosa qo'ng'iroq qildi bechora.

Bu hali holvasi. Jiyanim Abdurashid telefonga telegram o'rnatib bergandi. Shu yerda ham meni topib olishyapti. Har kuni turli kanallarga qo'shishadi. Qaysi biriga kirmay, pul va sovg'alar taklif qiladi. Sazasi o'lmasin, deb bir-ikkitasiga so'ragan ma'lumotlarini yuborgandim, lekin hali ham sovg'alarimdan darak yo'q. Kelib qolar-a, nima dedingiz?

Siz ham feysbukda bormi? Kattalar shu sog'onada ko'p o'tiradi, deyishgandi, men ham ochib oldim. Hammasi yaxshi edi, kutilmaganda Turkiyada qarindoshim o'lib qolibdi. Buni menga bir opa yozdi. O'sha qarindoshimni otam ham, bobom ham tanimas bo'lib chiqdi. Uzoqroq og'aynimdir-da. Xullas, opaning yozishicha, u marhumning vasiyatiga ko'ra, mol-mulkini nomimga o'tkazib berishi kerak ekan. Faqat ozgina hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlar bor, dedi. Qo'ylarimni sotib, o'sha opaga jo'natsam, hash-pash deguncha Turkiyaga, katta bir qasrda yashash uchun ko'chib ketadigan bo'lib turibman.

Men bu gaplarni maqtanish uchun yozayotganim yo'q. Yana orqamdan gap-so'z qilib yurmang! Aytmoqchi bo'lganim, odamlarimiz juda saxiy va mehribon bo'lib boryapti. Savobtalablar ko'paygan, ko'z tegmasin. O'zingnikidan top, deb shunaqa vaziyatda aytisharmidi?

**Hurmat bilan Cho'pon.**

*Yoshlar minbari*

**Yaqinda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'iga asosan respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalariga davlat stipendiyalari tayinlandi. Ular orasida Samarqanddagi oliy ta'lim muassasalari talabalari ham bor. Davlat stipendiyasi sohiblarining ayrimlari bilan suhbatlashdik.**

# STIPENDIATLAR ORZUSI

## MUAMMOLARNI YECHISHGA YORDAM BERAMAN



**Rahmatillo ABDUMALIKOV,**
**Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti buxgalteriya hisobi va audit (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi:**

- O'zim asli Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidanman. 2020-yilda tumandagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabini bitirib, o'qishga kirdim. Birinchi kursligimdan to hozirgacha faqat "5" bahoga o'qidim. Prezident stipendiati bo'lish uchun faqat "5" bahoga o'qigan bo'lish kerak. Boshqa davlat stipendiyasi sohiblariga 75 foiz a'loga o'qigan talabalar tavsiya etiladi.

Institutda barcha tanlov, sport musobaqalari, bayram tadbirlarida faol ishtirok etdim. Bayramlarda boshlovchilik qilgan bo'lsam, futbolda yaxshi o'yinchilardan edim.

Ikkinchi kursligimda institutda ilk rektor stipendiati, to'rtinchi kursligimda esa institut tarixida birinchi Prezident stipendiati bo'ldim. Prezident stipendiatligiga tavsiya etilganlar O'zbekiston tarixi, ingliz tili va informatika fanidan imtihon topshiradi. Mana shu uchta fanni yaxshi bilganlar imtihondan o'ta oladi. Imtihon Toshkentda bo'lib o'tdi.

Nasib bo'lsa, shu yil institutning bakalavriat bosqichini tugataman. So'ngra o'qishimni magistraturada davom ettirmoqchiman. Hozircha menga to'rtta oliy ta'lim muassasasidan birida magistraturada o'qish taklif etilyapti. So'ngra moliya muassasalarida ishlab, aholining muammolariga yechim topishda yordam beraman.

## YURAK JARROHLIGINI O'ZIMIZDA BAJARAMAN



**Ramiz SHAVAZI,**
**Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash ishi fakultetining 6-bosqich talabasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi:**

- Samarqand shahridagi 42-umumiy o'rta ta'lim maktabida, so'ngra Siyob tibbiyot kollejida tahsil olganman. Bolaligimdan shifokorlik kasbiga qiziqqanman. Bu kasbni tanlashimga otam - tibbiyot fanlari doktori, professor Shavazi Nurali Muhammad o'g'li sabab bo'lgan.

Talabalik baxti nasib etgach, universitetda bo'lib o'tadigan ilmiy konferensiyalarda, tanlovlarda faol qatnashib kelyapman. O'qish bilan birga universitetimizda ochilgan inkubatsion markaz koordinatoriman. Ikki yildan beri ushbu markazda talabalar bilan ishlayman.

Maqolalarim mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etildi. Ingliz tilini yaxshi bilaman, yaqinda C1 darajali sertifikat olish uchun imtihon topshirmoqchiman.

Shu yil bakalavriat ta'lim yo'nalishini bitirsam, jarrohlik yo'nalishida magistraturada o'qishni niyat qilyapman. So'ngra chet elda kardiojarrohlik kasbi bo'yicha o'qimoqchiman. Bemorlar yurak jarrohligi bo'yicha xorijda qimmat pulga davolanib keladi. Murakkab yurak operatsiyalarini o'zimizda bajarish va odamlarning og'irini yengil qilishni niyat qilganman.

## JAHON STANDARTIGA MOS ARXITEKTOR BO'LAMAN



**Farrux OMONQULOV,**
**Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti arxitektura yo'nalishining 3-bosqich talabasi,**
**Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi:**

- Asli Navoiy shahrida tug'ilganman. Akalarim quruvchi bo'lgani uchun bolaligimdan shu kasbga mehr qo'ydim. Shuning uchun arxitektura yo'nalishiga o'qishga kirdim. Maktab davrimda binolarning loyihasini yasaydigan Remit dasturini o'rgangandim. Ikki yildan beri universitetimizda ochilgan inkubatsion markazda o'quvchilarga dars beraman. Shu paytgacha yuzdan ortiq o'quvchiga ushbu dasturni o'rgatdim. Ayni paytda 24 nafar o'quvchim bor. Qisqasi, universitetda ham o'qib, ham ishlayman. Faqat a'lo bahoga o'qiganim uchun menga davlat stipendiyasi nasib etdi. Shu yo'nalishda magistraturani bitirganimdan so'ng xorijda malaka oshirib kelmoqchiman va jahon standartiga mos arxitektor bo'lib, Vatanimga xizmat qilish niyatim bor.

**Xurshida ERNAZAROVA tayyorladi.**

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**1-FEVRAL**

**Mamatqul HAZRATQULOV** – 1947-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

**2-FEVRAL**

**Bahrom VAFOQULOV** – 1928-yilda Samarqand tumanida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori.

**Rushona AMONOVA** – 1993-yilda Jomboy tumanida tug'ilgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi.

**3-FEVRAL**

**Matlub SAMIBOYEV** – (1927-2019) Samarqand shahrida tug'ilgan. Tibbiyot fanlari doktori.

**5-FEVRAL**

**Dushan FAYZIY** – (1926-2009) Qiziltepa tumanida tug'ilgan. Shoir, dramaturg, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi.

**Ne'mat TURNIYOZOV** – (1940-2022) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

**Komil OQILOV** – (1928-2021) Samarqand tumanida tug'ilgan. Tarixchi olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

**MUASSIS:** Samarqand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

*Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 715 nusxada chop etildi. Buyurtma 60. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2*

***Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.***

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
**MANZILIMIZ:** 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:** A.SHERXOLOV.
**Navbatchi:** A.BAROTOV.
**Sahifalovchi:** B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda